

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi.
- 2.A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyadi: Milliy demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. –T.: “Ma'naviyat”, 2000. - B.7.
- 3.Qarang: Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar. 2 jildlik 1-jild. –T.: “Ma'naviyat”, 2020. - B. 198-200
- 4.Behbudiy M Tanlangan asarlar // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B. Qosimov ,— 3-nashr . tuzatilgan va to'ldirilgan .— T.: «Ma'naviyat», 2006,— B. 170-171
- 5.Fitrat A Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: “Cho'lpon”, 2013. –B. 70-75
- 6.Munavvar qori Abdurashidxonov.Tanlangan asarlar (Tahrir hay'ati: O. SHarafiddinov, N.Aminov, N. Karimov vaboshq.: Mas'ul muharrir: N. Karimov,— T.: «Ma'naviyat», 2003. — B. 146.

Elektron manbalar:

<https://muxtoriyat.uz/index.php/en/manbalar/maqolalar-uz/hamza-hakimzodaniyoziyning-turkiston-muxtoriyati-hukumatiga-munosabati>

Boltayeva Ozoda Ja'far qizi

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

( filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi)

4-bosqich talabasi

## **Yurtim**

Tuprogi oltindan, nurlari zardan,  
Zargari eng oliy, usta zargardan.  
Hattoki dehqoni dunyoga ibrat,  
Shu zamin bolasi bo'lganda faqat.  
Sharaf-u shonlarga makonim yurtim,  
Abad-abadgacha omonim yurtim.

Mehmondo'stlikda har eldan ziyoda,  
Bilsang, ayt, bundayin yurtni dunyoda.  
Topolmaysan kezib hatto piyoda,  
Xoh Yevropa bo'lar, xoh Osiyoda,  
Bag'rikeng, osoyish, hur ona yurtim,  
Yagonam, birdonam, durdonam yurtim.

Qaytarar ovozing zabardast tog'lar,  
Ilitar fe'lingni chaman-u bog'lar.  
Ketadi ko'nglingdan gina-yu dog'lar,  
Barisi bu tanni lahzada sog'lar.  
Shifoyim, darmonim, davoyim yurtim,  
Nafasim kesilsa, havoyim yurtim.

Necha yurt, necha el bordir, shubhasiz,  
Barchasiga elsiz dunyo tordir, shubhasiz.  
Meningdek oshig'i bordir, shubhasiz,  
Bizlarga yurt ishqiyordir, shubhasiz.  
O'ziga tortuvchi sehrgan yurtim,  
Alishib-bo'lishmas mehrgan yurtim.

Jonim fido bo'lsin bu diyordun uchun,  
Ota-onam, qarindosh, bolam, yordun uchun.  
Roziman bariga bir diydordun uchun,  
Yurti yo'q emasman, yurtim bordun uchun.  
Bari-barisiga yetarim yurtim,  
O'lguncha seni madh etarim yurtim.